

SINFDAN TASHQARI O‘QISH DARSLARI YORDAMIDA BOSHLANG‘ICH TA‘LIMNI INNOVATSION HAMDA INTEGRATSION TASHKIL QILISH METODLARI

Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti
3-bosqish talabasi Shukurullayeva Nodira Qahramon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sinfdan tashqari o‘qish darslarini tashkil etish orqali boshlang‘ich sinflarda darsni innovatsion hamda integratsion tashkil qilish metodlari yoritiladi. Bugungi kun talablariga javob bera olish uchun darslarning innovatsion hamda integratsion tashkil etish muhim ekanligini hisobga olgan holda, mazkur mavzuda bir qancha adaniyotlar tahlili hamda olimlarimizning fikrlari ham maqoladan joy olgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion va integratsion metodlar, dars to‘garaklar, intensiv ta‘lim, metod,

KIRISH. Barchamizga ma‘lumki, biz jadal rivojlanayotgan zamonda yashamoqdamiz va bu davrning talablariga javob bera olish uchun, birinchi navbatda, ta‘limning innovatsion hamda integratsion tashkil etilishiga muhim e‘tibor qaratishimiz lozimdir. Ayniqsa, boshlang‘ich ta‘lim pedagoglari bu sohada juda ilg‘or tajribalarga ega bo‘lishi lozimdir. Mustaqil yurtda, sog‘lom aqlga muvofiq yangi ijtimoiy tuzumda yashaydigan barkamol avlodning ma‘naviyatini shakllantirishday, ta‘lim-tarbiyasini yuksak darajaga ko‘tarishday zalvarli yumush borki, u bilan pedagogika tarixi fani shug‘ullanadi. Shuning uchun ham pedagogika tarixi fani va amaliyotining bugunga kelib, maqsadi tamomila o‘zgardi. U mafkura iskanjasidan xalos bo‘lib, o‘ziga xos sof ilmiy qonuniyatlar asosida rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘lganligi tufayli bilim berish, mutaxassis tayyorlashni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan pedagogika tarixidan, barkamol shaxsni shakllantirishga yo‘naltirilgan jarayonga aylanib borayotganligi ko‘rinib turibdi.

Milliy pedagogika tarixi islom falsafasi - kalom xulosalariga, shaxs ma‘naviyatini takomillashtirish bo‘yicha eng ta‘sirchan va eskirmas qarashlar bergan tasavvuf ta‘limotiga tayanib rivojlanmoqda. Milliy pedagogika tarixi uchun o‘quvchi-talaba shaxsi, birinchi navbatda, komil inson sifatida shakllantirilishi muhimdir. Uning barkamollik darajasi nasl-nasabi, boyligi bilan emas, balki unga beriladigan bilimlar, aqliy imkoniyatlari-yu, ezgu fikr, ezgu kalom va ezgu amallari

bilan belgilanadi. Bu pedagogika tarixi uchun talaba shaxsida hosil qilingan bilim emas, balki uning komil insonlik darajasi asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi.[1]

Shaxs ma’naviy fazilatlarining qaysidir bir miqdori tug‘ma bo‘lsa-da, asosan, ta’lim va tarbiya vositasida shakllantiriladi. Shunday ekan, pedagogika tarixi jamiyat taraqqiyotida, xalqimizning, shu jumladan, yoshlarimizning mentaliteti va ma’naviy qiyofasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

ASOSIY QISM. Shuni aytish joizki, ta’limning aynan bir ko‘rinishida, ya’ni darslarda o‘quvchilarning yuqori sifatli bilim olishlarini ta’minlash orqali ularning barkamol hamda yetuk shaxs sifatida kamolga yetishlarini ta’minlash mumkindir.

Qomusiy olim Abu Nasr Forobiy ta’lim va tarbiyaga birinchi marta shunday ta’rif bergan edi: “Ta’lim, - degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o‘rtasidagi tug‘ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so‘zdir. Ta’lim faqat so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa, amaliy ish tajriba bilan, ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo‘lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo‘lishni, o‘rganishidir”. [2]

Ayni holatda, urg‘u bermoqchi bo‘lgan mavzumiz boshlang‘ich sinflarda sinfdan tashqari o‘qishni tashkil qilish metodlaridir. Ma’lumki, sinfdan tashqari o‘qishni tashkil qilish orqali o‘quvchilarning bilim samaradorligini bir necha barobar oshirishimiz lozimdir.

Maktab o‘quvchini o‘qish malakasi bilan qurollantirish bilan bir qatorda kitobni mustaqil o‘qiy oladigan, uni tushunadigan, ma’lum bir mavzuga oid kitoblarni tanlay oladigan, gazeta va jurnallarni ham mustaqil o‘qiydigan faol kitobxonni tarbiyalaydi. Shu jihatdan sinfdan tashqari o‘qish tarbiyaning asosiy quroli sifatida xizmat qiladi, ko‘p narsani bilishga havasni orttiradi. STO‘ning maqsadi o‘qish malakalarini takomillashtirish, kitob tanlay oladigan, muntazam kitob o‘qiydigan, o‘qilgan kitobni to‘g‘ri baholay oladigan ongli kitobxonni tarbiyalashdir.

Maktablarda 1959-yildan boshlab maxsus STO‘ darslari tashkil etilgan. STO‘ darslari 1-2 -sinfdan haftada 1 marta, 3—4-sinfdan 2 haftada 1 marta o‘tkaziladi. Savod o‘rgatish jarayonida esa haftadagi oxirgi alifbe darsining 17 -20 daqiqasi ajratiladi.[3]

ADABIYOTLAR TAHLILI. Sinfdan tashqari o‘qish o‘quv dasturi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, unda ko‘zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga



oshirishda yaqindan yordam beradi. Buning uchun o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash, ularni oddiy kitobxondan ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish talab etiladi. O'quvchilarda kitobga havas uyg'otishda har bir bolaga yakka tartibda yondashish, shaxsiy qiziqishlarini hisobga olish zaair. Bolalarda kitob ustida ishlash malakasini shakllantirish ularda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashning muhim omilidir. Bunda o'qish uchun ajratilgan soatlardan foydalaniladi. Badiiy va ilmiy-ommabop asarlar mustaqil ravishda va izchil o'qib

borilsagina, o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish va kengaytirishga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari o'qish tanish bo'lmagan mualliflarning kitoblari muqovasi, titul varag'i, kirish so'zi, mundariyasi va suratlariga qarab asarning taxminiy mazmunini aniqlashga o'rgatish vazifasini amalga oshirishga xizmat qiladi. Sinfdan tashqari o'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchida badiiy kitoblarni o'qishga havas uyg'otish, o'qigan kitoblari yuzasidan kundalik yurita olishga o'rgatish, bolalar adabiyotining mashhur adiblari hayoti va ijodi bilan elementar tarzda tanishtirish hisoblanadi. Bolalarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg'otish, ularning

bog'lanishli nutqini o'stirish, adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirish sinfdan tashqari o'qish darslarining ham tub mohiyatini tashkil etadi.

METODOLOGIYA. STO' darslarining muhim vazifalaridan biri mustaqil o'qish malakalarini tarbiyalash hisoblanadi. Buning uchun mustaqil bajarish uchun topshiriqlar berish, qiziqarli mashq turlaridan foydalanish, eng yaxshi insholarni, taqrizlarni, yozuvchi haqida to'plangan ma'lumotlarni o'qitish, „Tezaytish“, „Topishmoqlar topish“, „Ifodali o'qish“, „Maqollar aytish musobaqasi“, „Ertak to'qish“, „Bilimdonlar anjumani“ kabi ko'rik-tanlovlar tashkil qilish, muayyan mavzular bo'yicha savol-javoblar uyushtirish, o'yin tarzidagi ish turlaridan foydalanish zarur. O'qilgan asarlar yuzasidan suhbatlar o'tkazish, „Kitob haftoligi“ tashkil etish, asarlar asosida kichik insholar yozishni mashq qilish yaxshi samara beradi.

STO' sinfdan o'qish bilan uzviy bog'liq ravishda uyushtiriladi. Sinfdan o'qish STO' uchun zarur bo'lgan o'qish malakalarini shakllantiradi, o'quvchilarning o'qigan asarini tushunishga o'rgatadi, lug'atini boyitadi. STO' qiziqarli va o'ziga jalb etadigan faoliyat bo'lib, bolalarning bilim doirasini boyitadi, qiyoslash uchun material beradi. Sinfdan o'qish — hayotga tayyorlash vositasi, sinfdan tashqari o'qish

esa hayotning o‘zidir. Hozirgi paytda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun sinfdan tashqari o‘qishga mo‘ljallangan „Kitobim - oftobim“ (1—3-sinflar uchun) nomli qo‘llanmalar ham chop etilgan.

XULOSA. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, STO‘ga rahbarlikning asosiy shakli maxsus sinfdan tashqari o‘qish darslaridir. Bunday darslar erkin dars hisoblanadi. STO‘ darslarida o‘quvchilarning kitobxonlik qiziqishlari, bilim doirasi, estetik taassuroti, badiiy obrazlarni idrok etishi, ijodiy qobiliyati rivojlanadi; faol kitobxonlikka xos ko‘nikma va malakalar shakllanadi. Sinfdan tashqari o‘qish darslarining xususiyatlari, birinchidan, STO‘ tizimining bosqichlari bilan, ikkinchidan, o‘quv vazifalari va dastur bilan, uchinchidan, oldinga qo‘yilgan tarbiyaviy vazifalar bilan, to‘rtinchidan, o‘quvchilarning qiziqishlari bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N. Atayeva, F. Rasulova, M. Salayeva, S. Hasanov. Umumiy pedagogika. – T: “Fan va texnologiya”, 2012.
2. Abu Nasr Forobiy. Baxt – saodatga erishuv haqida. Risolalar. – T: “Fan”, 1975.
3. K. Qosimova va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi. – T: “Nosir”, 2009.

Research Science and Innovation House